



FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI FARMOYISHI

2022 - yil 9 - mart

44-11-153-F/22

Beshariq tumani hokimligi

Beshariq tumani Obodonlashtirish boshqarmasiga mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28-, 126-moddalariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentyabrdagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqava suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investisiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6074-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida joriy yil 8-fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida,

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida joriy yil 8-fevral kuni ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqqa muvofiq, Farg'ona viloyati hokimligining 2022-yil 12-fevraldagi 01-41/756-sonli murojaatiga ko'ra, Beshariq tumanida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash dasturini moliyalashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joriy yil 22-fevral kuni respublika budjetidan mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan 2023-yil 1-oktabrga qadar qaytarish sharti bilan 6,0 mlrd.so'm budjet ssudasi ajratilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3.Tumandagi Qorabo'yin, Oltinko'l, Telov hamda Vatan MFY hududlarida toza ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash maqsadida, ichimlik suvi minorasi sotib olishga ajratilgan budjet ssudasi mablag'laridan, 340,0 (uch yuz qirq) mln.so'mi tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga ajratilsin.


4.Tuman hokimligi Moliya bo'limi (A.Egamnazarov)ga ajratilgan

mablag'lar doirasida moliyalashtirish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (Sh.Xayitov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

5.Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (R.Abdusattorov)ga mazkur farmoyish bilan ajratilgan mablag'ni maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.

6.Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o'rinbosari T.Samatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



R.K.Jo'rayev

Махсулот етказиб бериш шартномаси
(E.tender.uzex.uz электрон портали орқали №59752 лот асосида шаклланган харид комиссиясининг баённомасига асосан)

08.04.2022 йил

№13682

Бешариқ тумани

Ушбу шартнома бўйича «*Буюртмачи*» деб аталувчи Бешариқ тумани Ободонлаштириш бошқармаси ва унинг номидан Низом асосида иш олиб борувчи бошқарма бошлиғи **Н.Насипов** бир томондан ва «*Етказиб берувчи*» деб аталувчи “**Besh trade servise 2020**” МЧЖ ва унинг номидан Низом асосида иш олиб борувчи рахбари **Г.Эргашева** иккинчи томондан келишув асосида амалдаги қонунларга мувофиқ тузилди.

I. ШАРТНОМАНИНГ МАВЗУСИ

1.1. «*Етказиб берувчи*» мазкур шартнома шартларига мувофиқ «*Буюртмачи*»нинг талабларидан келиб чиқиб, умумий баландлиги 12 метр, хажми 15 м3 бўлган 2 дона сув минораси иншоотини етказиб беради.

II. ШАРТНОМАНИНГ БАҲОСИ ВА ХИСОБ КИТОБ ТАРТИБИ

2.1. «*Буюртмачи*» томонидан тасдиқланган тижорат таклифи ва танлов комиссиясининг қарори билан тасдиқланган махсулотлар қиймати (барча солиқлар, йиғимлар ва ажратмаларни ўз ичига олган ҳолда)га асосан жорий нархларда шартноманинг умумий нархи **125 700 000 (Бир юз йигирма беш миллион етти юз минг) сўмни** ташкил этади.

2.2. Шартнома томонлар ўртасида имзоланиб, тегишли Ғазначилик бўлимида рўйхатга олингандан сўнг 15 банк иш кунида «*Буюртмачи*» етказиб бериладиган асосий воситалар умумий қийматининг 30 фоизини олдиндан яъни, **37 710 000 (Ўттиз етти миллион етти юз ўн минг) сўмни** аванс тариқасида «*Етказиб берувчи*»нинг ҳисоб рақамига ўтказиб беради.

2.3. Асосий воситалар учун тўловларнинг қолган 70 фоизи, «*Етказиб берувчи*» томонидан топширилган ҳисоб-варақ фактуралар асосида 30 банк иш кунида ўтказиб беради.

2.4. «*Буюртмачи*» охириги тўловни «*Етказиб берувчи*» томонидан топширилган хисоб-варақ фактуралар асосида 10 банк иш кунидан кечикмаган муддатда ўтказиб беради.

2.5. Бажарилган ишлар учун тўловлар «*Буюртмачи*» томонидан пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

III. ТОМОНЛАРНИНГ ХУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

3.1. «*Буюртмачи*»нинг мажбуриятлари

Шартнома имзолангандан сўнг етказиб бериладиган асосий воситалар «*Буюртмачи*»дан хисоб-варақ фактурага асосан қабул қилиб олади.

Мазкур шартномада илова қилинадиган тўловлар жадвалига мувофиқ аванс тўлови амалга оширилгандан бошлаб 15 кун муддат ичида асосий воситаларни етказиб беришга киришади.

Барча ишларни тасдиқланган смета хужжатларига мувофиқ, мазкур шартномада назарда тутилган хажмда ва муддатларда ўзининг кучлари билан бажариш ҳамда «*Буюртмачи*»га мазкур шартнома шартларига мувофиқ топширади.

3.2. «*Етказиб берувчи*»нинг ҳуқуқлари

Махсулот учун олдиндан аванс ҳақ тўланишини ва ишни бажариб топширгандан сўнг тўла хажмда хисоб китоб қилинишини талаб қилиш;

Махсулотни қабул қилиб олиш асоссиз равишда рад этилиши натижасида етказилган зарарни қопланишини талаб қилиш;

3.3. «*Буюртмачи*»нинг мажбуриятлари

Тасдиқланган смета бўйича махсулотларни қабул қилиб олиш;

Сотиб олинган махсулотлар учун ўз вақтида ҳақ тўлаш;

3.4. «*Буюртмачи*»нинг ҳуқуқлари

«*Етказиб берувчи*»дан амалдаги давлат стандартлари ва бошқа меъёрий ҳужжатлар билан таъминлашни талаб қилиш;

Камчиликларни бепул бартараф этилиши ёки камчиликларни бошқа шахс томонидан тўғриланиши харажатларини қопланишини талаб қилиш;

«*Етказиб берувчи*»дан шартномада курсатилган махсулотларни қабул қилиш комиссияси иштирокида сифатини куриб олиш;

«Етказиб берувчи» томонидан етказиб берилган махсулотларни шартнома шартларига ва иш хужжатларига мувофиқлигини назорат қилиш.

IV. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

4.1. Томонлардан бири шартнома мажбуриятини бажармаса ёки зарур даражада бажармаса мажбуриятни бажармаган томон иккинчи томонга етказилган зарарни тўлайди;

4.2. «Етказиб берувчи» махсулотни ўз вақтида топширмаганлиги учун «Буюртмачи»га хар бир кечиктирилган кун учун шартнома мажбуриятлари бажарилмаган қисмининг 0,5 % миқдорида пеня тўлайди. Тўланадиган пеня суммаси бажарилмаган мажбуриятлар баҳосининг 50 % идан ошмаслиги керак.

4.3. Аниқланган нуқсон ва камчиликлар «Етказиб берувчи» томонидан ўз вақтида бартараф қилинмаса «Буюртмачи» тўловлар тўхтатилади. Лозим даражада бажарилмаган ишларнинг 20 % и миқдорида «Етказиб берувчи» жарима тўлайди.

4.4. Етказиб берилган махсулотлар учун «Буюртмачи» томонидан ўз вақтида ҳақ тўланмаса, хар бир кечиктирилган кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0,4 %и миқдорида пеня тўлайди. Тўланадиган пеняларнинг умумий суммаси кечиктирилган тўловларнинг 50 %и миқдоридан ортмаслиги керак.

4.5. Тўланадиган пеня ва жарималар шартнома мажбуриятларини бузган тарафни иккинчи тарафга ана шу мажбуриятларни бажармаслик оқибатида етказилган зарарни қоплаш жавобгарлигидан озод этмайди.

V. ФОРС МАЖОР ХОЛАТЛАР

5.1 Ушбу шартнома бўйича мажбуриятларни тўлиқ ёки қисман бажарилмаслиги табиат ходисалари ва бошқа енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари натижасида келиб чиқса ва бу ҳолатлар шартнома шартларини бажарилишига бевосита таъсир этса томонларнинг жавобгарликдан озод этилиши Қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда кўриб чиқилади.

VI. ШАРТНОМАНИ ЎЗГАРТИРИШ, БЕКОР ҚИЛИШ ВА НИЗОЛАРНИ ХАЛ ҚИЛИШ ТАРТИБИ

6.1. Мазкур шартнома белгиланган шаклда томонларнинг ўзаро келишувига мувофиқ ўзгартирилиши ва бекор қилиниши мумкин.

6.2. Мазкур шартнома бўйича юзага келиши мумкин бўлган низо ва келишмовчиликлар ўзаро муҳокама йўллари билан хал этилади. Агарда ўзаро муҳокама йўли билан хал этиш имкони бўлмаса Қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда Иқтисодий суди орқали хал этилади.

VII. ШАРТНОМАНИНГ АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТЛАРИ

7.1. Шартнома томонлар имзолаб, ҳудудий Ғазначилик бўлимида рўйхатга олинган кундан кучга кириб, «31»декабр 2022 йилгача амал қилади.

7.2. Шартнома 2 нусхада тузилиб, иккала нусхаси ҳам ҳуқуқий жihatдан тенг кучли ҳисобланади.

VIII. ТОМОНЛАРНИНГ РЕКВИЗИТЛАРИ

“Етказиб берувчи”

“Буюртмачи”

“BESH TRADE SERVICE 2020 ”
МЧЖ

Бешарик т. Қуйи Зарқайнар МФЙ

х/р 20208000705310488001

ИНН 307953644 МФО 00401

ОКЭД

АТ Алоқабанк Тошкент ш. Бош
офиси

Бешарик тумани Ободонлаштириш
бошкармаси

Бешарик шаҳри О.Водий кучаси №114
уй

х/р 100022860302157062902110002

ИНН 206994051 МФО 00014

ОКЭД 92930

Марказий банк Тошкент ХККММ



Г.Эргашева

Бошлиқ :

Н.Насипов





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
BESHARIQ TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

150300, Beshariq tumani, Oltin Vodly ko'chasi, 46-uy, tel.: (998 73) 612 21 19,
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: beshariq.t-yurmarkaz@adliya.uz

12.04.2022 yil

Beshariq tuman
Obodonlashtirish boshqarmasiga

XULOSA

(Obodonlashtirish boshqarmasining 23-sonli
shartnoma loyihasiga)

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Suv minorasi inshootini etkazib berish to'g'risida №13682 sonli shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yil 08 aprel kuni ishlab chiqilib, shu kuni markazga taqdim qilingan.

4.Loyiha bo'yicha taklif: Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hamda "Besh trade servise 2020" MCHJ o'rtasida Suv minorasi inshootini etkazib berish bo'yicha 13682-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

Uzbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari tugrisida"gi 684-sonli Qonuni xamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda № 3016 son bilan ruyhatdan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi tugrisidagi" nizom va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldagi PQ-5171-sonli Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir kushimcha chora tadbirlar tugrisidagi karorini ijrosini ta'minlash maksadida Respublika Tovar hom-ashyo birjasining xarid.uz saytidagi boshkarmaning shaxsiy kabineti orkali № 59752 lot raqami bilan e'lon joylashtirilgan.

Shartnoma loyihasiga Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2022 yil 01 aprel kungi 2022 yilda ajratilgan mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish hamda tovarlar, ish, xizmatlarni bajarish maqsadidagi tanlov komissiyasining yigilish bayoni, № 59752 lot raqamli e'lon bo'yicha takliflar, bajaruvchilarning tadbirkorlik Guvohnoma, ustavi va Farg'ona viloyati Beshariq

tumani hokimining 2022 yil 09 mart kungi № 44-11-153-F/22 sonli farmoyishi ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

XULOSA

Yuqoridagilarga asosan, Beshariq tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan suv minorasi inshootini etkazib berish to'g'risida № 23-sonli shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblanadi.

Beshariq tuman YuXKM
bosh yuriskonsulti



A.Farmonov